

**METHODS OF TEACHING THE TEXT "PARTNER'S BIRTHDAY" WITHIN THE FRAMEWORK OF INTERNATIONAL RESEARCH REQUIREMENTS**

Mavlonbek A. Doniyarov

Lecturer

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: PIRLS, interactive form, communication, reading comprehension.

Received: 25.09.22

Accepted: 27.09.22

Published: 29.09.22

Abstract: Based on the requirements of PIRLS research, the article shows the analysis of texts in primary school textbooks and teaching methods. A thorough understanding of reading comprehension skills and the ability to apply them in the classroom will make the classroom meaningful as well as interesting.

“SHARIKNING TUG‘ILGAN KUNI” MATNINI PIRLS XALQARO TADQIQOTLAR TALABI DOIRASIDA O‘RGATISH METODLARI

Mavlonbek A. Doniyarov

o‘qituvchi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: PIRLS, interaktiv shakl, muloqot, o‘qib tushunish.

Annotatsiya: Maqolada PIRLS tadqiqotlari talabidan kelib chiqib boshlang‘ich sinf darsligidagi matnlar tahlili, o‘rgatish usullari ko‘rsatib berilgan. O‘qib tushunish ko‘nikmasini to‘liq anglash, uni dars jarayonida qo‘llay olishlik dars jarayonining mazmunli bo‘lishi bilan birga qiziqarliligini ham ta‘minlaydi.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕКСТУ «ДЕНЬ РОЖДЕНИЯ ПАРТНЕРА» В РАМКАХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ТРЕБОВАНИЙ

Мавлонбек А. Дониоров

преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: интерактивная форма, общение, понимание прочитанного.

PIRLS, Аннотация: На основании требований исследования PIRLS в статье проводится анализ текстов учебников для начальных классов и методов обучения. Глубокое понимание навыков понимания прочитанного и умение применять их в классе сделают процесс обучения не только интересным, но и содержательным.

KIRISH

Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim tizimida deyarli tinglash jarayoni amal qiladi. O'z-o'zidan shakllanadigan tinglash qobiliyati boshlang'ich ta'limda tizimli ravishda qo'llaniladi. Chunki tinglash o'rganish uchun eng maqbul vosita hisoblanadi.

Tinglash odatda ikki turga bo'linadi. Bu interaktiv shakl va o'zaro ta'sirsiz tinglash shaklida bo'ladi. Shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday fikr-mulohaza bu ularning tinglayotgan narsalariga munosabat holati bilan izohlanadi. Masalan, odob-axloq haqida rivoyatlar tinglayotgan bola shu paytning o'zida, noqobil fikrlardan uzoq turadi.

Boshqa tomondan, interaktiv bo'lmagan tinglash - bu muloqotning abstrakt turi bo'lib, unda shaxs hech qanday munosabat bildirmaydi. Go'yoki o'zi ishtirok etmayotgan vaziyat ishtirokchisi bo'lib turadi. Masalan, yo'lda qushlarning sayrashi, televizor yoki radio tomosha qilish. Bunday befarq holat o'quvchiga ma'lumotlarni qabul qilishda qator to'sqinliklarni yuzaga chiqaraveradi.

ASOSIY QISM

O'qish orqali kiruvchi xabarlarni qabul qilish dekodlash asosida amalga oshirilishini idrok va ma'noga asoslangan murakkab mahorat deb tushunish ham mumkin. O'quvchi muloqotining qabul qiluvchi tomonidan tushunish bu kuchga yo'naltirilgan faoliyatdir. O'qish, fikrlash, o'zlashtirish va gapirishni bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mahorati sifatida tushunish mumkin.

O'qish insonda tug'ma qobiliyat emas, u ta'lim orqali erishiladi va ega bo'ladi. Bu inson hayotining har bir davrida yaratilishi va rivojlanishi mumkin bo'lgan harakatdir.

2-sinf uchun Ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 1-qismida "Sharikning tug'ilgan kuni" matni berilgan. Eduard Uspenskiy qalamiga mansub ushbu hikoya 396 ta so'zdan iborat bo'lib, matn uch qismga bo'lingan holda berilgan. Ushbu matn badiiy turga mansub bo'lganligi bois badiiy tajriba orttirish maqsadida o'rganiladi.

Matnni o'rganishning pirovard maqsadi uni tushunish ekan, o'quvchilarga Sharik bilan bog'liq voqealarni o'rgatishni kommunikativ yondashuvga asoslanib o'rgatish maqsadga muvofiq sanaladi.

Kommunikativ yondashuv muloqotga asoslangan jarayon bo'lib, o'quvchining matn mazmunini savol-javob, suhbat, nutq so'zlash va tinglash asosida o'rganishligi nazarda tutiladi.

“Sharikning tug‘ilgan kuni” matni uch qismga bo‘lib o‘rgatishga mo‘ljallanib, har bir qism so‘ngida matnni tushunishga oid savollar berilgan.

Har bir matn parchasi (yoki parchalari) yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to‘rtta tushunish jarayoni uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ma‘lumotni topish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish, g‘oyalar va axborotni talqin qilish, uyg‘unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilish jarayonlaridir.

Odatda to‘liq tushunish uchun o‘quvchidan barcha matnni yoki hech bo‘lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

Matnni to‘liq tushunish jarayoni yana quyidagilarni o‘z ichiga oladi: matnda berilgan ma‘lumotning aniq va to‘liqligi, tasvirlangan voqeaning haqiqatan sodir etilishi ehtimoli mavjudligi, insonlarning o‘ylari va bajaradigan ishlarini o‘zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligi, matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishi, metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta’siri, muallifning asosiy mavzuga oid qarashlari.

“Sharikning tug‘ilgan kuni” matni yuqoridagi tamoyillarni qanchalik o‘zida aks ettirishini tahlildan o‘tkazib ko‘ramiz.

1. Matnda berilgan ma‘lumotning aniq va to‘liqligi. Hikoya Sharikning tug‘ilgan kuni bilan bog‘liq voqealar bilan boshlanib, hikoya so‘ngida tug‘ilgan kunga oid taklif va tashabbuslar o‘z yechimi va xulosasini topgan.

2. Tasvirlangan voqeaning haqiqatan sodir etilishi ehtimoli mavjudligi. Tug‘ilgan kun bolalarning eng sevimli oilaviy tadbirlaridan biri hisoblanib, uni nishonlash, xursandchilikda o‘tkazish barcha bolalarning bir yilda bir marotaba nishonlaydigan quvonchli onlari hisoblanadi.

3. Insonlarning o‘ylari va bajaradigan ishlarini o‘zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligi. Oilaviy tadbir ishtirokchilarining tug‘ilgan kuni nishonlash, sovg‘a tanlash borasidagi qarashlari hayotiy va o‘rinli hisoblanib, bu yerda muallifning fikri hikoya qahramoni Sharik, ya’ni it bo‘lsa-da, uning samimiyligi, quvnoqligi, oilaning ajralmas do‘sti bo‘la olganligini ifodalaydi.

4. Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishi. Matn sarlavhasi matn mazmunini to‘liq yoritib bera olgan. Matndagi voqealar Sharikning tug‘ilgan kuni bilan bog‘liq sujet asosida shakllangan.

5. Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta’siri. Matn o‘ziga xos til xususiyatlariga ega:

“– Men unga burgaga qarshi bo‘yinbog‘ sovg‘a qilaman, – dedi Matroskin. – Ham chiroyli, ham foydali!

– Ham haqoratli, – deb e’tiroz bildirdi Fyodor amaki. – Hamma shu zahoti Sharik burgalab ketganini bilib qoladi”.

6. Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlari. Muallifning qarashlari bolalarning oddiy va ular uchun ajoyib onlari – tug‘ilgan kunlarini qay tarzda o‘tkazishlarini ifodalashda ko‘rinadi. Bolalarning

tug‘ilgan kunlari asosan qay tartibda o‘tkazilishi, dasturxon qay tartibda bo‘ishi va sovg‘alarning rang-barangligi va ajoyibligi bilan mazmunli bo‘ladi.

Shunday qilib matn o‘quvchi tushuna olishi uchun yetarli ma’lumot va badiiy vositalarga ega. O‘quvchi matnni, ya’ni harf ko‘rinishidagi shakllarning ketma-ketligidan tashkil topgan birliklarni – so‘zlarni bir-biriga qo‘shib, ularni dekodlash asosida mazmun chiqarish vazifasini bajarishi lozim bo‘ladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun o‘qituvchining boshqaruvchilik faoliyati muhim o‘rin tutadi.

“Sharikning tug‘ilgan kuni” matni uch qismdan iborat bo‘lib, har bir qism so‘ngida matn mazmunini tushunishga qaratilgan savollar berilgan. Savollar mazmuni matnni tushunish uchun yetarli darajada konstruksiyalashtirilgan (“Sharikning tug‘ilgan kuni” matni 2-ilovada savol va topshiriqlari bilan birgalikda ko‘rsatilgan).

Matnning birinchi qismi o‘rganilganicha o‘quvchilar quyidagi savollarga javob berishlari lozim bo‘ladi: “Sharik: “Mening tug‘ilgan kunim qachon?” – deb so‘rganida yilning qaysi fasli edi?”, “Neftchilar kuni, Quruvchilar kunida kimlar bayram qiladi deb o‘ylaysiz? Siz shunga o‘xshash boshqa bayramni bilasizmi?”, “Matroskin Sharikka: “30-sentyabrni tug‘ilgan kun qilaver”, deb aytdi. U nima uchun bu kunni taklif qildi?”, “Ov mavsumi” nima?”, “Fyodor amaki kim?”. O‘quvchilar o‘qituvchi ko‘magida savollarga javob berish asnosida matnni o‘rganishadi. Savollarning mantiqiyliqi, matn mazmuniga mosligi va qamrovi o‘quvchilarning matnni tushunishlariga yordam beradi.

“Neftchilar kuni, Quruvchilar kunida kimlar bayram qiladi deb o‘ylaysiz? Siz shunga o‘xshash boshqa bayramni bilasizmi?” kabi savollar o‘quvchilar uchun qiziq bo‘lishi bilan birga ularning dunyoqashi, bilimni oshishiga ham xizmat qiladi. Biz ko‘pchiligimiz “O‘qituvchilar kuni”, “Bolalar kuni”ni bilamiz. Biroq biz bilan yonma-yon soha egalarining ham o‘zlarining ahamiyatli kunlari borligini bilib olamiz.

Matnning ikkinchi qismi audiomatn ko‘rinishida berilgan. O‘quvchilar audiomatnni eshitib quyidagi berilgan savollarga javob topishadi: “Burgaga qarshi bo‘yinbog‘ nima uchun “haqoratli sovg‘a” edi?”, “Nima uchun Matroskin Sharikdan: “Ko‘p pul topib olsang, nima qilarding?” – deb so‘radi?”, “Sharik pul topib olsa, nima sotib olgan bo‘lardi?”, “Nima uchun Matroskinning Sharikka pul sovg‘a qilgisi keldi?”, “Fyodor amaki nima uchun pul sovg‘a qilishni xohlamadi?”, “Sharikning do‘sti bo‘lganingizda unga nima sovg‘a qilardingiz? Bu sovg‘a Sharik uchun foydalimi?”.

Matnni o‘rganish uchun berilgan savollar matn mazmunini ochib berish uchun xizmat qilsa-da, ko‘proq matn sujeti bilan chegaralanib qolayotganligi, matn voqealariga asosiy e’tibor qatayotganligi asarni to‘liq tushunib olishlikni biroz cheklashi mumkin. Shuning uchun matnni to‘liq tushunish, uni boricha anglashni amalga oshirish uchun savollar mundarijasini biroz o‘zgartiramiz. O‘quvchini o‘ylashga, mushohada yuritishga undaydigan savol va topshiriqlar mazmunan to‘liqligi bilan birga, mushohadalilikni talab qilishi foydali hisoblanadi.

O'qish jarayoni ushbu to'rtta asosiy harakat doirasida amalga oshirilsagina mazmun namoyonlashadi:

- a) aniqlash
- b) ma'lumotga ega bo'lish
- c) talqin qilish
- d) hukm

Bunday harakat ko'proq tinglab tushunish jarayoni uchun muhim hisoblanadi. Ma'umotlarga qaraganda tinglash kundalik muloqotning 50-70% tashkil qiladi.

O'quvchi matn mazmunini to'liq tushunishi uchun savollarni xalqaro sinov dasturlari asosida tuzish o'quvchini matn mazmunini tushunishga o'rgatish bilan birga sinov-tajriba vazifasini ham bajaradi:

1. Matroskin Sharikka: "30-sentyabrni tug'ilgan kun qilaver", deb aytganda dastlab nimani nazarda tutgan edi?

- A. Shu kun Sharikning tug'ilgan kunning bo'lishini xohlaganligini
- B. Shu kuni ov mavsumi ochilganligini
- C. Yildagi eng yaxshi kun 30-sentyabr ekanligini
- D. Sharikning shu kuni tug'ilganligini

2. Sharikning 30-sentabr tug'ilgan kuni bo'lishligiga arziqli e'tirozi nimada edi?

- A. Ungacha ancha vaqt borligida
- B. Ov mavsumi ba'zan bekor bo'lib qolishida
- C. Avgust oyi endi boshlanayotganligida
- D. Sharikning kayfiyati yaxshi emasligida

3. Pirog ustiga uchta suyak qoyilishining asosiy sababini ko'rsating.

- A. Sham o'rniga suyak qo'yib kerakligi uchun
- B. Nechta suyak qo'yishni bilishmaganligi uchun
- C. Uch yosh – juda itlarbop yosh ekanligi uchun
- D. Sharik suyakni yaxshi ko'rganligi uchun

4. Fyodor amakining Sharikka pul sovg'a qilish fikridan qaytishiga nima sabab bo'ldi?

- A. Fyodor amakiga ko'ylak olmoqchi bo'lganligi uchun
- B. Matroskin, sut uchun separator olib bermoqchi bo'lganligi uchun
- C. Sovg'ani Sharikka emas, o'zlari uchun olayotgan bo'lib chiqqani uchun
- D. Sharik pulni ishlatishni bilmaganligi uchun

5. Hikoyadagi voqealar ketma-ketligini raqamlar bilan ifodalang. 1 raqami qo'yilgan.

_____ Otasi esa uchta medalli bo'yinbog' berdi.

___1___ Dasturxon atrofiga o'tirishgan ham edi.

_____ Fyodor amakining oyisi zich tishli temir taroq sovg'a qildi.

_____ Fyodor amakining ota-onasi kelib qoldi.

6. Sharikka berilgan sovg'alardan eng foydalisini ajratib ko'rsating? Shu sovg'ani tasvirlab yozing.

7. Sharikning do'sti bo'lganingizda unga nima sovg'a qilardingiz? Bu sovg'a Sharik uchun foydali tomonlarini yozing.

8. Fyodor amakining oyisi Sharikka zich tishli temir taroq sovg'a qildi. Natijada Sharik uchun foydali nima hodisa ro'y berishi mumkin edi?

- A. Undan birorta burga qochib qutulolmaydi
- B. Ham chiroyli, ham foydali bo'ladi
- C. Fyodor amakining otasi esa uchta medalli bo'yinbog' berdi
- D. Uni bayramlarda taqardi

9. Fyodor amaki va oila a'zolarining Sharikka bunchalik mehribonchiligining boisi nimada deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating.

10. Sharikning oila a'zoari bilan xuddi odamdek gaplashayotganligini qanday tushundingiz. Shunday bo'lishi mumkin ekanligini asoslab ko'rsating?

11. Hammaning "Sharikning burgasini eplab bo'lmay qolibdi" deb o'ylashini siz qanday tusunganligingizni izohlab yozing. Bunday qarash nima uchun Sharikka yoqmaydi deb o'ylaysiz?

12. Sharikning oila-a'zolari bilan do'stligini asoslovchi uchta dalil keltiring. Keltirgan dalillarni asoslab yozing.

2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 2-bo'limi "Tug'ilgan kuning bilan!" deb nomlanib, unda o'ndan ortiq topshiriqlar va bitta "Eng yaxshi sovg'a" she'ri berilgan.

Bo'limdagi barcha vazifa va topshiriqlar "Sharikning tug'ilgan kuni" matni bilan bog'lanib, asosiy bosh mavzu "Tug'ilgan kun" mavzusiga birlashadi.

Bo'limning birinchi topshirig'i rasmlar bilan ishlash bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilar rasmlarga qarab savollarga javob berishadi: "Rasmlarda nimalar tasvirlangan?", "Tug'ilgan kun qanday kun?",

“Bu kunda nimalar sovg‘a qilishadi?”, “Sizning tug‘ilgan kuningiz qachon?”, “Sizga nima sovg‘a qilishlarini istaysiz?”

O‘quvchilar bu savollarga hech ikkilanmay bemaolol javob bera olishadi. Chunki bu savollar hayot bilan, o‘quvchilarning hayot tarzi, eng sevimli va qiziqarli onlari bilan bog‘liqligi o‘quvchilarning fikr bildirish istagini uzaga chiqarib beradi. O‘quvchilarda o‘z-o‘zidan muloqot jarayoni, fikr bildirish istagi, mushohadakorlik yuzaga chiqa boshlaydi. Kommunikativ yondashuvga asoslangan dars jarayoni boshlanadi, o‘quvchilarning nutqiy muloqot mexanizmi amalga oshadi.

O‘qish savodxonligiga o‘rgatish shunchaki ma‘lumot uzatish emas, balki fikrlash qobiliyatini yaxshilash usulidir. Fikrlash matndagi mazmunni o‘qiy olish qobiliyatidir. Shu bois matnni o‘qish jarayoni quyidagi bosqishlar asosida namoyonlashadi:

1. Aniq va mantiqiy fikrlash qobiliyati
2. Tahlil qilish qobiliyati
3. Sintez qilish qobiliyati
4. Mulohaza yuritish, fikr yuritish qobiliyati
5. Tanqid qilish qobiliyati

“Sharikning tug‘ilgan kuni” matnini o‘qish jarayonida o‘quvchi haqiqatan ham itning egasi bo‘lishini, u itiga nisbatan g‘amxurlik qilishi, it ham egasiga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lishini fikrlay oladi.

XULOSA

O‘quvchi hikoya sujetini tahlil, analiz qila turib, Sharikning harakatlarini, Fyodor amaki, uning ota-onasini, Matroskinning karakterlarini, xatti-harakatlarini tahlildan o‘tkazadi. So‘ng bu tahlillar birlashib hikoya, matn mazmunini to‘ldirish uchun xizmat qilayotganini aniqlaydi. Bu sintez qobiliyatini anglatadi. Nihoyat, voqealar ketma-ketligidan ayon bo‘la boshlaydiki, qahramonlarning muloqot jarayoni, hazillari, fikr-mulohazalari, qilayotgan ishlari hayotning ma‘lum tomonlarini, biz anglamagan tomonlarini anglatib, ko‘rsatib bera olyapti. Agar o‘quvchining tasavvuriga mos bo‘lmagan, tushunmagan, qabul qila olmayotgan tomonlari mavjud bo‘lsa, albatta, aytilishi mumkin. Bunday tanqid qilish jarayoni salbiylikni emas, hayotni tushunish, anglash, bilish tomon tashlangan qadam deb qabul ainishi kerak. Aslida, matnni tushunish, hayotni anglash mana shunday tanqidiy qarashlar asnosida shakllanadi.

Tovushlarning yozuvdagi aksi bo‘lgan harflar ketma-ketligining joylashuvini dekodlash asosida mazmun paydo qilinadi. Shu mazmun o‘quvchiga oddiy xabar, tushunchadan boshlab koinotning eng sirli, aqlbovar qilmas cheksizliklarini namoyon etib bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-son qarori
2. Asaqarova M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish” Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Namangan.-2020. 15-sahifa.
3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet. 16-bet.
4. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta’lim jarayonlarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi. –T., 2006
5. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu.
6. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.
7. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.27-bet.